

AUDITORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA
AUDITORLIK DALILLARINI TO`PLASH
MASALALARI

<https://zenodo.org/records/11521357>

Rasulova Zilola Abdig`opparovna

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universitetining “Bank ishi
va buxgalteriya hisobi” kafedrasi o`qituvchisi.*

Xozirgi kunda auditorlik xizmatlari bozorining o'ziga xosligi raqobatning kuchayishi, korxonaning moliyaviy holati bo'yicha ishonchli axborotga ega bo'lish bo'yicha audit sifatiga talablarning kuchayishi, chunonchi O'zbekiston korxonalarining xalqaro kapital bozoriga chiqishi, moliyaviy hisobot va auditning xalqaro standartlarga o'tishi natijasida auditorlik xizmati buyurtmachilari hamda audit xulosasidan foydalanuvchilarning talablarini ortishi bilan namoyon bo'lmoqda. Tashqi auditorlik firmasi tomonidan moliyaviy hisobotlarni ishonchliligi yuzasidan asosli xulosa berishi uchun u yetarli auditorlik dalillarini yig'ishi kerak bo'ladi. Auditor tomonidan moliyaviy hisobot ko'rsatgichlari to'g'ri va ishonchli ekanligini tadiqlash uchun tasdiqlovchi auditorlik dalillarini yig'ishi kerak bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi auditorlik faoliyatining milliy standarti (AΦMC) №50 “Auditorlik dalillari” nomli standartga ko'ra, auditorlik dalillarni yig'ish tartib asosida va ma'lum bir ketma-ketlik asosida amalga oshiriladi. Ushbu standartga ko'ra, auditorlik dalillarini olish jarayoni bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladi (1-chizma).

Auditorlik dalillarini olish maqsadini belgilab olingandan so'ng bizning fizrimizcha auditning umumiy rejasi va audit dasturini tuzish bilan bir vaqtda oldindan auditorlik dalillarini yig'ish usullarini aniqlab olish kerak. Auditorlik dalillarini xo'jalik yurutuvchi subyektning ichki nazorat tizimini tekshirish va mohiyati bo'yicha tekshirish amallarini o'tkazish yo'llari bilan olish mumkin.

Auditorlik dalillarini xo'jalik yurutuvchi subyektning ichki nazorat tizimini testdan o'tkazish va mohiyati bo'yicha tekshirish amallarini qo'llashni nazarda

tutuvchi auditorlik dalillarini olish usullarini oldindan aniqlash auditorlik tekshiruvini foydaliligini oshiradi.

Auditorlik amallarini turkumlanishi quyidagilar:

- Dalillarni olish maqsadlarini belgilash
- Dalillarni yig`ish usullarini aniqlash
- Dalillarni yig`ish uchun axborotlar miqyosini belgilash
- Zaruriy qo`shimcha dalillarni yig`ish
- Olingan dalillarni baholash
- Olingan natijalarni rasmiylashtirish.

Rejalashtirish bosqichida auditor bir qancha vazifalarni bajaradi: mijoz-tashkilot faoliyati bilan tanishish, moliya-xo`jalik faoliyatini baxolash, buxgalteriya hisobini tashkil qilinishi va uni yurutishi bilan tanishish, ichki auditni tashkil qilinishi va ishlashi bilan tanishish, qo`shimcha xizmatlar ko`rsatish ehtimolligini aniqlash. Har bir vazifani bajarish aniq axborotlarni to`plash bilan kuzatiladi. Ushbu jarayonni ma`lumotlar manbasini umumiy sxemasini ishlab chiqish va auditorlik dalillarni olish usullarni aniqlash orqali rejalashtirish mumkin.

Bunda auditor №50 “Auditorlik dalillari” nomli AΦMC da keltirilgan quyidagi usullardan foydalanadi: nazorat; kuzatish; so`rov; hisoblash; analitik amallar.

Auditorlik dalillarining axborot manbalarining aniqlashda audit standartlarida belgilanganidek auditor bevosita tekshiruvga chiqishdan oldin asosiy vositalar hisobini tartibga soluvchi asosiy me`yoriy hujjatlardagi o`zgarishlarni o`rganishi lozim.

Dalillarni yig`ish va ularga ishlov berish bevosita auditorlik tekshiruvining dastlabki bosqichida auditorlik dalillarni yig`ishda ichki nazorat tizimini baholash muhim ahamiyatga ega. Baxolash natijasiga ko`ra keyingi amallar tarkibi aniqlanadi. Agar ichki nazorat tizimi past darajada baholansa, u holda bajariladigan amallar soni va yoppasiga tekshirish ehtimolligi ortadi.

O`z o`rnida auditorlik dalillari ishchi hujjatlar shaklida rasmiylashtirilayotganda majburiy tartibda auditorning fikri ham aks ettirilishi

kerak. Hamda aniqlangan bo'yicha qo'shimcha dalillarni yig'ish talab etiladigan bo'lsa, qo'shimcha dalil yig'ish kerakligi bo'yicha belgi qo'yadi.

Auditorlik dalillarni baxolash deganda tekshiruv jarayonida to'plangan dalillarni audit maqsadiga erishish va ishonchliligini aniqlashdagi o'rnini belgilash maqsadida bajariladigan mantiqiy va fikrlashga oid jarayon tushuniladi. Auditorlik dalillarni baholash asosan quyidagilarni aniqlash maqsadida amalga oshiriladi: olingan ma'lumotlar qonunchilikka zid emasligi ya'ni ulardan dalil sifatida foydalanish mumkinligi, ushbu olingan dalillar audit maqsadiga mosligi, olingan dalillardan keying tekshiruvlarda foydalanish imkoniyatlari, to'plangan dalillar majmui qaror qabul qilish uchun yetarli asoso bo'la oladimi, hamda auditorlik xulosasini asoslash uchun yetarli hisoblanishi.

Auditor mutloq haqiqiy to'g'ri ma'lumotni ololmasligi mumkin. U haqiqatni aks ettiruvchi dalillarni to'plashi kerak bo'ladi. Bularning hammasi auditorning javobgarligi darajasini aniqlashga asos bo'lib xizmat qiladi. Olingan ma'lumotlar auditorlik hisobotida o'z aksini topadi.

Shuni aytish mumkinki, auditorlik xulosasi va auditorlik xizmatlarining sifati bevosita auditorning professional bilimi va tajribasi natijasidir. Yuqorida qayd etib o'tilgan chora-tadbirlarga amal qilinishi mamlakatimiz auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish va ularning ko'rsatayotgan xizmatlari sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.